



ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

globallashuv, sotsiologiya, adabiyotda globallashuv, internet, radio, televideniye, jurnal, syoppuku.

Barchamizga ma'lumki, bugungi dunyoning taraqqiyot yo'li ichki va tashqi omillar ta'sirida yuzaga kelmoqda. Jumladan, ommaviy axborot vositalari – radio, televideniye, gazeta, jurnal va internet orqali ma'lumot ayirboshlash rivojlanib bormoqda. Bu jarayon esa, o'z o'rnida davlatlar o'rtasidagi globallashuv muammolarining yuzaga chiqishiga asos bo'ladi.

Globallashuv – lotincha “glob”so'zidan olingan “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” kabi ma'nolarini anglatib, “bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog'liq bo'lgan katta muammolarni o'zida qamrab oladi.”

Globallashuv atamasi birinchi bor 1960-yil Giddens tomonidan ishlatilgan. 1990- yilga kelib, amerikalik olim Ch.T.Rassel bu tushunchani to'liq ochib bergan.

Aslida esa, ushbu tushuncha bundan ham ilgariroq insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud edi, degan fikrlar ham yo'q emas. Jumladan, Muhammadjon

ADABIYOTDA GLOBALLASHUV MUAMMOSI

Xolmatova Nargiza Nematovna

FDU Maktabgacha ta'lim kafedrasini o'qituvchisi

Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona viloyati

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6748640>

ABSTRACT

Hozirda nafaqat, O'zbekiston, balki dunyo xalqlarining yashash sharoiti, iqtisodiy va madaniy yo'nalishlarida globallashuv muammosi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bir tarafdin uning ijobiy tarafini tahlil qilsak, ikkinchi tomondan uning salbiy tomonlarini ham aytish mumkin. Jamiyatdagi hech qanday muammo badiiy adabiyotni chetlab o'tmaydi. Quyidagi maqolada globallashuv jarayoni va uning badiiy adabiyotda yoritilishiga guvoh bo'lamiz

Xolbekovning “Moziyga qaytaylik” maqolasida yoritilishicha “miloddan avvalgi IV asrda Yunon sarkardasi Aleksandr Makadoniskiy butun Osiyoni qurol kuchi bilan zabt etib, aslida yarim dunyoni birlashtirmoqchi, qudratli davlat barpo etmoqchi bo'lgan va shu tariqa insoniyat tarixida globallashuv jarayonini ochib berdi.”

Globallashuv jaroyini va uning oqibatlarini xususida dunyo sotsiologlari turli xil izlanishlar olib borib, salbiy va ijobiy jihatlari haqida bir qancha dalillar keltiradilar. Jumladan, 1998 yilda K.Annan shunday degan edi: “Ko'pchilik uchun bizning davrimiz oldingi barcha davrlardan globallashuv hodisasi bilan ajralib turadi. Globallashuv ... nafaqat dunyoni o'zlashtirish usullarini, balki bir-birimiz bilan muloqot qilish usullarini ham qayta quradi” – deydi. Bu haqida Portugaliyalik yozuvchi, Nobel mukofotini olgan J.Saramagu: “Menga hozir globallashuv jarayonida sayyoramizda keskin tezlikda



shakllanayotgan tartib, nizom yoqmaydi”4 – desa, J.Soros “globallashuvning shuncha kamchiliklariga qaramay, men uni rashkchi tarafdoriman. Men uni qo’llab quvvatlashim sababi, nafaqat u beradigan qo’shimcha boyliklar, balki u odamlarga berishi mumkin bo’lgan erkinlik sababi hamdir”5 – deb yozadi.

Hozirgi kunga kelib bu atama zamonaviy fan tilining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan, ammo uning jamiyatga ta’siri haqida turlicha fikrlar bildirilmoqda. Bir tomondan qaraganda, bu jarayonning ijobiy jihatlari ham bor. Chunki, ko’pgina mamlakatlarga fan-texnika, texnologiya yutuqlarining jadal kirib kelishi globallashuv tufaylidir. Bu esa ularning iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush darajasining ortishiga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Shu tariqa bashariyatning umumiy intellektual salohiyati yuksalishiga olib kelmoqda. Ammo, tanganing ikki tarafi bo’lganidek, globallashuvning salbiy oqibatlari, jumladan, ekologiya, sog’liqni saqlash, axloq, oila, ta’lim-tarbiya, ma’naviy dunyoqarash kabi sohalarda namoyon bo’lmoqda.

Jamiyatdagi har qanday muammo badiiy adabiyotga ham o’z ta’sirini ko’rsatmay qolmaydi. O’zbek adabiyotida globallashuv jarayoni tufayli ijodiy erkinlik va ko’tarilish davri bo’ldi.. Adabiyot sun’iy cheklashlar, to’siqlar va qoliplardan sekin - asta qutildi. Prozada ham, poeziyada ham, dramaturgiyada ham ko’plab asarlar yaratildi. Qisqa davr ichida adabiyotning barcha tur va janrlarida hayotni ro’y rost, murakkabligi bilan tasvirlagan yangi asarlar vujudga keldi. Ayniqsa, adabiyotdagi sifat o’zgarishlari nasrda yaqqol namoyon bo’ldi. Hikoyachilikda kuzatilayotgan mazmun va shakl birligiga erishish, ruhiy tahlilning turli usullariga

murojaat qilish bu janr imkoniyatlariga qayta umid tug’dirdi. Ammo ikkinchi tarafdin, yoshlarda globallashuv aks etgan badiiy asarlar va ommaviy axborot vositalari ta’sirida ommalashib ketayotgan madaniyatini aytish lozimdir. Afsuski, axborot maydoni tobora kengayib borayotgan sharoitda bolalarning ongini o’rab-chirmab tarbiya berish, shubhasiz, zamon talabiga zid harakatdir. Chunki biz demokratik jamiyatda yashoyotganimiz, farzandlarimiz esa har sohada bizdan ilgari ketganligini aytish mumkin. Bu borada tanqidchi olimlarimiz fikrlari ham bisyorgina. Globallashuv jarayoni iqtisodiy jihatdan jamiyatga bir qancha yangiliklar olib kirgan bo’lsa, badiiy adabiyotda “Bozor adabiyoti”ni vujudga keltirdi. Unda o’zbek adabiyotida saviyasiz asarlar ko’payib ketayotgani, ammo ularning bozori chaqqon bo’lishining sababi, bu esa kitobxonlar ongining pastlashi, va yengil - yelpi asarlarga ishtiyoqmand bo’lib qolishiga sabab bo’layotganliklari haqida so’z ketadi Shu o’rinda, adabiyotshunos, tanqidchi olim Yo’ldosh Solijonovning globallashuv davrida yuzaga kelayotgan badiiy asarlarning ko’lami haqida “Men badiiy adabiyotning tarbiyaviy, estetik vazifalarini ustuvor deb bilgan bir mutaxassis sifatida, hozirgi adabiy jarayondan to’la qoniqish hosil qilolmayman. Ijod erkinligi zamirida, avvalo, adibning o’z xalqi, Vatani va uning ma’naviy ko’zgusi hisoblangan adabiyoti — so’z san’ati oldidagi buyuk mas’uliyatini tushunaman. Ana shu mas’uliyatni chuqur his etgan ijodkor asarida nimani qanday yozish kerakligini oldindan o’ylab oladi. Xayoliga kelgan, eshitgan yoki qaysidir chet el kitobida o’qigan voqea-hodisalarni qog’ozga tushiraverish bilan moddiy boylikka ega bo’lish mumkin, lekin obro’



ololmaydi. Ernest Xeminguey ta'бири bilan aytsak, nuqul oldi-qochdi, ur-yiqitni ifodalash bilan bozorga chiqib "boy bo'lishni istaganlar yozuvchilikni havas qilmay qo'ya qolsinlar." Tanqidchi olim A.Ulug'ov hozirgi kunda yaratilayotgan asarlar haqida "ko'pchilik miyasini mashaqqatga qo'yadigan jiddiy asarlardan ko'ra, "tezhazm" roman, qissalarni o'qib, "jangari" filmlarni ko'rib, maroqlanadi. Quvish, qochish, o'ldirish, qasos olishdan iborat "jangari" filmlarni tomosha qilish, to's-to'polon voqealarga to'la asarlarni o'qish asta-sekinlik bilan diydani qotirib, kishini shafqatsizlikka moyil qilib qo'yadi. Shunday ekan, kishilar ma'naviyatiga beqiyos ziyon yetkazadigan har qanday "ommabop" asarga sergaklik bilan munosabat bildirib, jamoatchilikka uning "baho"sini aytish kerak. Bu, albatta, birinchi galda adabiy tanqidchilik zimmasidagi dolzarb vazifadir. "7 Tanqidchi olimlar fikrlariga xulosa beradigan bo'lsak, albatta, ularning e'tirozlarida jon bor. Chunki kun sayin o'zgarib borayotgan ma'daniyat tufayli, insonlar ham "yengil hayot" ga o'rganib qolishi, badiiy asarlarni yaratuvchisi iqtisodiy manfaat ko'rish maqsadi-da asar yaratsa, kitobxon esa bu saviyasiz asarni faqat "vaqt o'tkazish" uchun mutolaa qilishi achinarlidir.

Isajon Sultonning "Internet adabiyoti" maqolasida globallashuv jarayonini ommalashtirayotgan internet vositasini adabiyot va adabiy muhitga ta'siri haqida so'z boradi. Dastlab, adabiyotshunos internetning har sohadagi ijobiy ta'siri haqida gapirsa, so'ngra, ushbu vosita orqali kelajakda bosma nashrlar yo'qolib, adabiyot tamomila Internetga ko'chib o'tsa nima bo'ladi, degan xavotirlarni tilga oladi. Uning fikricha, "O'quvchi badiiy asar

ijodkorini taniydi, asarlarini qo'lga olib o'qiydi, lekin internet ijodkorini, uning maqsad va istaklarini bilib bo'lmaydi. Shu yo'sinda o'quvchi internet adabiyotiga bog'lanib qoladi. Unda mavjud muammolar bilan yashaydi. Maqsadlari bilan nafas oladi." Shuning o'zi ham bizni o'ylantirayotgan sabablarning bir ko'rinishidir.

Hozirgi o'zbek adabiyotida bu kabi globallashuv muammolarini o'z asarlarida yoritayotgan yozuvchilarimiz qatorida adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, Isajon Sultonning "Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi" hikoyasida shu kabi muammolar o'z aksini topadi. Ushbu hikoyaning bosh qahramoni sakkiz yashar bola bo'lib, hayot sinovlariga hali tayyor emas, bolalarcha beg'ubor, sodda, ammo fikrlashi teran, yaxshi tarbiya ko'rgan, ongiga, kattalarga, milliy qadryatlarimizga hurmat tushunchalari go'dakligidan singdirilgan.

Yozuvchining mahorati asarning boshlanish qismidayoq namoyon bo'ladi. Chunki asar voqealari kunning shomga yaqinlashib qolganligidan boshlanadi. Shom bu butun yer yuzining qorong'ulikka yuz tuta boshlaganiga ishoradir.

Bolaning ko'ngli televizor ko'rishni xohlab qoladi. Unda dunyoning turli burchagida yuz berayotgan, hatto kattalarni ham ta'sirlantiradigan voqealar bolani hayron qoldiradi.

Dastlab, bolakay Germaniyada Paulo nomli sakkizayoqning alvon yopinchiqli qutiga solib, dunyoning turli burchaklardan tashrif buyurgan insonlar bilan so'nggi manzilga kuzatish marosimini guvohi bo'ladi.

"Allaqaysi mamlakatda o'tkazilayotgan futbol musobaqasida kimning g'olib



chiqishini butun insoniyatga aynan mana shu sakkizoyoq bildirgan, biroq, afsuski, ikki soat oldin g'aroyib jonzot jonini Haqqa topshirgan, eni ham, bo'yi ham olti quloqlik ulkan shisha idish ichida hozir ifodasiz, ko'zlarini baqraytirib, harakatsiz yotar edi.

Yuzlab kishilar alvon yopinchiqli qutiga solingan sakkizoyoq jasadini tantanavor ko'tarib borar, qayg'uli musiqa chalinar edi."

Yozuvchi mazkur tasvirda ongsiz hayvonning odamlar kabi e'zozlanishini ko'rsatib, butun dunyo teletomoshabinlari ongiga insondan ko'ra hayvonning qadri baland ekanligini isbotlashga urinayotganlarni tanqidga oladi. Qandaydir ongsiz sakkizoyoqni "avliyo" sanab, uning turli xil bashoratlari orqali ilohiylashtirilganligi ko'rsatiladi. Balki bu holat, Fransuz olimi J.L.Dyumgining ta'killaganidek: "globallashuv jarayoni - milliy madaniyatlar inqirozi, tarixiy jamiyatlar to'qnashuvi, "chatishgan madaniyatning" ning paydo bo'lishidir."10

"So'ng Afrikaning ekvatorga yaqin o'lkalaridan birida ro'y bergan voqea namoyish qilina boshlandi. Eti borib ustixoniga yopishib ketgan sakkiz yashar bolakay jizg'anagi chiqib ketgan tuproq ustida zo'rg'a sudralib, qayoqqadir holsiz intilmoqda edi. Ortda katta bir tosh ustida bahaybat o'laksaxo'r qush unga qilt etmay qarab turardi.

Sur'at ostida yozuv qalqib chiqdi: "Afrikaning qurg'oqchil o'lkalaridan biridagi bu bolakay hozir ikki chaqirim naridagi oziq-ovqat tarqatish markazi tomon emaklab bormoqda." Tantanavor bir ovoz mazkur fotosur'atning xalqaro Pulitser mukofotini olganini ta'kidlar, bolaning taqdiri nima bo'lgani noayon edi."11

Bu lavhada yozuvchi qadr tushunchasiga zid tasvirni qalamga oladi. Afsuski, biz A.Toynbi ta'biri bilan aytganda "insoniyat, "umumiy uy", "umumiy taqdir", "umumiy tashvishlar" bilan yashashga kirashayotgan, bir so'z bilan aytganda globallashuv deb atalayotgan jarayonlar sodir bo'layotgan zamonning qurbonlarimiz."12

Sakkiz yashar go'dak bolaning achinarli holati har qanday qalbni ham larzaga solishi kerak, ammo ochlikdan sillasi qurigan bu majruh bolakayning sakkizoyoqchalik qadri yo'q edi. Uning taqdiri hech kimni qiziqtirmasligi esa insoniyatda mehr - oqibat tuyg'ularini unitilib borayotganidan dalolatdir.

"Keyingisida qanaqadir yapon professori kuyinib o'z tilida gapirmoqda. Insoniyat texnologiyalar tahdidiga yo'liqqani uchun u, o'zining sakkiz yashar o'g'li bilan birga yaponlarning qadim syoppuku an'anasini ado etishini bildirmoqda edi. Hozir bir qancha tillarda jar solayotgan suxandonlar-u turli ranglardagi yozuvlar bugun soat to'rtida

amalgam oshiriladigan o'sha an'ananing juda qiziq bo'lishini va'da qilar, tomosha qilishni tavsiya etar, "faqat biz bilan qoling!" deya bong urardi."

Bu lavhada yuz berayotgan voqeaning sababchisi ham aniq. "Insoniyat texnologiyalar tahdidiga yo'liqqani uchun" - deb izoh beradi. Ota o'z farzandini millionlab insonlar guvohligida joniga qasd qiladi. Afsuski, u hozir ongiga o'rnashib olgan yot tushunchalar nafaqat o'zining, balki o'z farzandining o'limiga sababchi bo'layotganini anglab yetmaydi. Eng achinarlisi, insoniyatning so'ngi manzilga ketish jarayoni shouga aylantirilganligidir. Teledasturchilar esa bu qayg'uli vaziyatni ko'ngilochar lavhaga



aylantirib, bunday jarayon juda qiziq bo'lishini ta'kidlar, insoniyatning fojeali qismatidan o'z maqsadlari yo'lida foydalanar edi. Shu kabi muammolarni yer yuzida jadallashib ketayotganini kuzatgan Oksford universiteti direktori, professor Nik Bostrom globallashuv jarayonining salbiy oqibatlari haqida o'ylab ko'rilmayotgani haqida kuyunib, "insoniyat o'z taraqqiyotining keskin burilish nuqtasiga katta tezlik bilan yaqinlashayotganiga ishora qiladi. Texnologiyaning misli ko'rilmagan xatarlariga qo'shilib qolmay, ayniqsa, tuzoq qayerda joylashganligini, muqarrar o'limga olib borishi mumkin bo'lgan yo'llarni payqash zarur"¹³ ekanligi aytadi.

"Bola keyingi dasturga o'tdi. Unda qo'rqinchli film namoyish etilayotgan ekan. Qanaqadir tushunarsiz yo'llar bilan tirilib, nima uchundir vahshiylashib ketgan g'alati maxluqlar tiriklarga daf qilmoqda, aqlni shoshirar darajada kuchliligi va yanayam qo'rqinchlisi - o'lmasligi bilan qo'rqitmoqda edi.

Namoyish etilayotgan filmda vahshiy qahramonlar ilm-u fan kashfiyoti yoxud bo'lar-bo'lmas jodular natijasida tirilgan o'liklar nima uchundir tiriklarni yeyishga juda-juda qiziqishlari bolani o'ylantirib qo'ydi."¹⁴

Odatda bolalar fantastik - sarguzasht filmlarni yoqtiradilar. Ularda aks etgan ijobiy qahramonlar hayotida yashab, xayolida o'zlaridan jasur va mehribon obrazlar yaratishga urinadilar. Ammo bugungi film avvalgilaridan qo'rqinchliligi bilan farq qilardi. "Bola hozir mabodo, o'lgan kishi tirilsa, nima istashini xayolidan o'tkazdi." Hali qalbiga vahshiylik haqidagi tushunchalar begona bo'lganligi sababli bu holatni tasavvuriga keltira olmadi. O'zini

chalg'itish maqsadi-da, keyingi kanalga o'tdi.

"Navbatdagisi - Space dasturi edi. Olti oydirki, uch fazogir zirhli fazo kemasining ichida, Yer atrofida vaznsizlik sharoitida yashamoqda edilar. Ular insoniyatga qarata, suvda suzgan kabi havoda suzgan qo'l silkitdilar, bola ham hazillashib qo'l silkib qo'ydi. Fazogirlar maftunkor Yerga mahliyo bo'lib boqmoqda edilar. Biroq, go'zalliklardan zavqlanishdan ham ko'ra ularning muhimroq boshqa vazifalari bor edi: bu kishilar tuproq ostidagi neft konlarini fazodan izlash dasturini endigina tugallab, undan ham muhimroq boshqa dasturga - harbiy josuslik dasturiga kirishishlari lozim edi."

Insoniyat mavjud bo'libdiki, Yaratgan tomonidan uning barcha ehtiyojlarini qondirish maqsadida yer, havo, suv va olov kabi to'rt unsurlar taqdim etilgan. Ammo ba'zi kimsalar tasavvurida bu ne'matlar yashash, nafas olish va rohatlanish uchun kamlik qiladi. Mana olti oydan buyon fazogirlar yer ne'matlariga, boyliklariga qanoat qilmay, o'z nafslari yo'lida neft konlarini fazodan qidirmoqdalar. Ular uchun boylik qidirish va buni kashfiyot darajasiga ko'tarish har narsadan muhimdir. Bola esa ularning maqsadlarini tushunmaydi, hatto havas ko'zi bilan boqib, ularga qo'l silkitadi.

Boylik esa inson ko'zini ko'r qilib qo'yadi. Unga ruju qo'ygan odamning qalbida mehr, sadoqat, oqibat va adolat kabi tuyg'ular yashamaydi. Yuz beradigan har qanday vaziyatning, hatto vaqtning ham davosi pul deb o'ylaydigan bunday shaxslarga farzandining qiziqishlari, orzu - umidlari go'yoki qiziqmasdek tuyuladi. Hikoyada keltirilgan navbatdagi TV-qimorxonada voqeasi shunday boylik ilinjidagi yuzlab kishilarning harakatlari haqida.



“Ular muhtasham va shovqinli saroyga to‘planishgan, tinim bilmay qichqirishar va baqirishar, pul tikishar, ko‘zlari hayajondan chaqnar edi. Yutuqqa katta pul qo‘yilgan bo‘lib, unga ega chiqadigan kishi umrining oxirigacha rohat-farog‘atga ko‘milishi va‘da qilinmoqda edi. O‘yinning halol va haqqoniyligini isbotlash uchun kechagi o‘yinda g‘olib bo‘lgan bir bolakayni ham studiyaga taklif qilishibdi. Dunyoning eng yosh millioneri hozir juda yaqindan ko‘rsatilmoqda edi. U sun‘iy jilmayish bilan, ammo ko‘zlari javdiragancha tomosha ahliga qo‘l silkitardi. Yonidagi ota-onasi esa baxtiyorlikdan ko‘zlari chaq nab, shoshapisha nimalardir der edilar.”

Hikoyada aks etgan voqea qimorxonada bo‘lib o‘tadi. Unda qimor o‘yining targ‘iboti olib borilayotgan edi. Balki bu A.I.Utkinning "XXI asrning jahon tartibi" kitobida ifodalanganidek, globallashuv - dunyoning yangi axborot ochiqligi, texnologik inqilob, rivojlangan sanoat davlatlarining tovarlar harakatini liberallashtirish majburiyatiga asoslangan yagona global tizimga birlashishidir.”¹⁷ Chunki qachonlardir jinoyat sanalgan qimor o‘yini bugun globallashuv ta‘side ta‘qiqlarsiz ommaning e‘tiboriga havola etilmoqda. Dasturning haqqoniy ekanligini isbotlash uchun davra markaziga chiqqan bolaning qarashlari, maqsadsiz jilmayishlaridan sezish mumkunki, uni hech qachon boylik qiziq tirmagan. U allaqachon bolalikning beg‘ubor davrlarini ota-onasining extiyojlari yo‘lida sarf etgani, mehrga tashna, yaqinlarining e‘tiboriga muhtoj bo‘lib ulg‘ayganligi sezilib turadi. Lekin dunyoda hech qancha qiymatga ega bo‘lmagan, kerak bo‘lganida narxi baland bo‘lib ketadigan mehr tuyg‘usi ham qimorxonada uchun boy berilgan edi. Bola yosh bo‘lsa-da, tengdoshining juda-juda

zerikkanini, siqilganini va charchaganini, yutuq uni zarracha qiziq tirmayotganini sezib, unga achinadi.

“Bola kanalni almashtirdi. Bu yerda bolalar o‘rtasida boks musobaqasi bo‘layotgan ekan. Ekvatorga yaqin mamlakatlarning birida o‘tkazilayotgan bu musobaqaga ham yuzlab kishilar to‘planishibdi. Mana, atrofi arqon bilan o‘ralgan ringga ikki bolakay chiqib keldi, zang chalingach, ular bir-birlariga tashlanib, shafqatsizlik ila do‘pposlashga tushib ketishdi. Sal o‘tmay, bittasining og‘zi-burni qonga belandi, tomoshatalablar esa urgan bolani olqishlar, qiyqirib sakray boshladidar, bularning orasida oqbilak ayollar, yosh qizaloqlar va ularning otalari ham bor edi.”¹⁸

Insonlar azaldan turli urush sahnalarini tomosha qilishni, bu jarayonning jonli guvohi bo‘lishni yoqtiradilar. Jang davomida ikki raqibning bir-birlariga bo‘lgan shavqatsizlarcha munosabatiga barcha tomoshabin ham dosh berolmaydi. Chunki ularning qismati aniq, umri pulga, g‘alabaga tikilgan. Bolaning e‘tiborini tortgan holat raqibini og‘zi – burnini qonga to‘ldirgan bolaning olqishlanishi bo‘ldi. Aslida, kimgadir tan jarohati yetkazib, uning mag‘lubiyati evaziga g‘olib bo‘lish, olqishlanish, odamiylikka hech qachon to‘g‘ri kelmaydi.

Bola kanallardagi g‘ayrioddiy voqealarni kuzatishda davom etadi.

“Keyingi dasturda Amerika sohillarida halok bo‘lgan yuzlab delfinlar ko‘rsatilyotgan edi. Qo‘lida mikrofon tutib olgan o‘rta yashar bir kishi hech bir sababsiz halok bo‘lgan delfinlarning cheki ko‘rinmas, jasadlari aro bir nimalarni bezovtalanib gapirmoqda edi. Nima uchundir bu aqlli jonzotlar oilaviy halokatni afzal ko‘rishgan, bahaybat bu



baliqlarning yonida kichkina murg'akkinalari ham bor edi."1

Bu holatni tabiatning halokati deb aytish mumkin. Yozuvchi aynan insoniyatga hamisha do'st bo'lib kelgan, mehribon va beozor jonzotni ramziy obraz qilib tanlashida ham bir hikmat bor. Balki, ular bu dunyoda yashashdan ko'ra o'limni afzal ko'rishgandir. Chunki, kundan kunga unitilayotgan shafqat tushunchasi o'rniga vaxshiylik bo'y ko'rsatayotgani nafaqat begunoh insonlar, balki beozor hayvonlarning bevaqt o'lim topishiga sababchi bo'lmoqda. Afsuski, inson bolasi bu voqelikka oddiy nazar bilan boqar, yuz berayotgan falokatlarning eng birinchi sababchisi o'zi ekanligini anglab yetmaydi. Yuz berayotgan yangiliklar uni qo'rqitmaydi, balki o'zlarini dahlo sanab, kashfiyotlaridan sevinadilar, manfaatini ko'zlaydilar. Dastur davomida bola ekran orqali guvohi bo'lgan kashfiyot ham shu haqida edi.

"Yaponiyada gen o'zgartirish orqali qush kabi sayrovchi kalamushlar olamga keltirilganligi haqida gapirildilar. Haqiqatan ham chirqillovchi bu kalamushlar o'z katakchalarda pitirlab sayramoqda edilar. "Dunyo mutantlarga to'lib bormoqda! – der edi diktör. – Bugun tevaragimiz sun'iy yurakli, sun'iy buyrakli va hatto sun'iy ko'zli kishilar bilan to'la, ular biz bilan yonma-yon yashamoqdalar. Yigirma birinchi asr — mutatsiya va misli ko'rilmagan evrilishlar asri bo'lajak!" deb xitob qilardi olim."20

Buni qarangi, butun olam g'aroyib kashfiyotni guvohi bo'ldi. Olim Kuzovkov Yuning "Globallashuv va tarix spirali" asarida ta'kidlanishicha, "Afsuski, tan olishimiz kerakki, globallashuv 21-asrda global falokatning boshlanishiga haqiqatan ham yordam berishi mumkin. Inson o'z

genini deyarli dekodladi va o'z turini yaratish yoki klonlash arafasida; u koinotning bir qator sirlarini hal qildi va koinotni kashf qilmoqchi edi, yadro energiyasini boshqarishni o'rgandi, mukammal elektron tizimlar va sun'iy intellektni yaratdi. Ammo uning natijasi bilan qiziqmadi. Shu sababli, bugungi kunda insoniyat tobora ko'proq havoda samolyotda uchishga qaror qilgan bolaga o'xshaydi." - deb aytadi. Bu borada olim haq edi. chunki, amalga oshiralayotgan kashfiyotlarning natijasi maqsadsiz ekanligini olimlarning o'zlari ham anglab yetmaydi. Asardagi insonlarga hamisha zarar keltirgan kemiruvchining endi qushlar kabi sayray olishi yozuvchi aytganidek "misli ko'rilmagan evrilish" lar sababli yuzaga kelgan kashfiyotdir. Atrofda sun'iylik borayotgan inson a'zolari esa globallashuvning anglab bo'lmas darajada rivojlanishi, inson bolasi uddalab bo'lmaydigan yumushlar texnikaning ta'sirida ravnaq topayotganini aytish mumkin. Odamlar tanasidan joy olayotgan sun'iy yurak, sun'iy ko'zlarda esa hech qachon mehr yashamasligi, buning ta'sirida butun dunyo tamomila sun'iylikka yuz tutayotganini aytish mumkin.

Keyingi kanalda tarixiy sahna ko'rsatilib, unda qurollangan yosh bolalar jangga otlandi. Bir dinning ikki oqimi bo'lgan bu bolalar jang maydonining dahshatlarini hali tasavvur qilib ko'rmagan, ona sutlari og'zidan ketmagan, go'daklarcha, qo'rqib jang qilar, ba'zan kapalak tutib ketar, kaltak yeyishganda "dadamga aytib beraman" – deb qochishar edi. Begunoh bu go'daklar urush qoidalarini qaydan bilsin! Yashash ishq bilan to'lgan yuraklari dahshatli urush maydonida "O'ldirgan g'oziydir, o'lgan shahid!"21- qarori bilan fojeali o'lim topayotgan edi. Shu o'rinda,



Rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinov'evning "Aksilglobalizm vektorlari" nomli anjumandagi nutqida "globallashuv – yangi jahon urishidir, u yangi tipdagi jahon urishi. Bu urushda tirik qolishning, qarshilik ko'rsatishning yo'lini ko'rmayapman"22– degan fikrini keltirish mumkin. Darhaqiqat, urush beshavqat, u insonlarni gunohkor yoki begunohga ajratib o'tirmaydi. Afsuski, bunday "urush"lar hozirda butun dunyoni egallab olgan.

Bola shu asnoda kanallar orqali butun dunyoning yangiliklarini, aslida esa, fojealarining guvohi bo'lardi. Yuragida yangi zamon dahshatlarini to'liq anglab yetmasa-da, bu kabi yangiliklar, kashfiyotlar yaxshilikka olib kelmasligini his etardi. Inson yuragining toshga aylanib borayotganligi, ko'z o'ngida o'laksaxo'rlarga yem bo'layotgan majruh bola, burni va og'zidan qon keltirgan bolaning barcha tomonidan olqishlanishi, yoki texnikaning ta'sirida sakkiz yashar bolasi bilan o'z joniga qasd qilish kabi dahshatlar bola qalbida hayotga nafrat, ishonchsizlik, qo'rquv kabi tuyg'ularni shakllantiradi. Aslida esa, bu bola milliy qadryatlarimizga boy bolgan ma'naviyatli oilada tarbiya topgan. Eshikdan otasi kelganda oldiga peshvoz chiqib, qo'llarini ko'ksiga qo'yib salom berishni, ovqatga kattalardan oldin qo'l cho'zmaslikni, dasturxon qoqilganda bir chetga qoqilishi, undan tushgan non ushoqlarini qushlar terib yeyilsa, savob bo'lishi kabilar ular oilasining belgilangan qoidalari ekanligi so'zimning isbotidir. Eng achinarlisi, bu kabi holatlar yer yuzining barcha nuqtalarida yuz berayotgani, qanchadan qancha insonlar, ayniqsa, go'daklarning ongiga o'z ta'sirini ko'rsatib, ularning bolalarcha beg'ubor olamini o'g'irlab, yot

tushunchalarni joylab qo'yayotgan ommaviy axborotlarsiz kunimizni tasavvur qila ololmayotganimizdir.

Ko'rish mumkinki, globallashuv jarayonini har bir inson o'z tafakkuri, o'z qarashlari, oilaviy muhit va tarbiyasiga qarab qabul qiladi. Shunday ekan, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Biz yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi, unga turli tahdidlar hujum qilmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi milliy va umummilliy qadryatlarga hurmat – ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarurdir." – degan fikrlarini qo'llab-quvvatlash, globallashuv muammolarga o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, uning kelajakda, nafaqat dunyo xalqlari, shu qatorida o'zbek millatining bundan-da yuksalishiga asosiy sabab bo'luvchi tushuncha sifatida qarashga undamog'imiz darkor.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yozuvchi Isajon Sultonning yuqoridagi hikoyasi orqali jahon xalqlarini qiynab kelayotgan globallashuv muammolari to'g'ridan to'g'ri qalamga olingan. Uning ta'siri bilan yer yuzida oqibat va insof tushunchalarining begonlashib borayotgani, yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasiga tahdid qilayotgan kuchlarni, o'z uyida, otanasining bag'rida ochiqdan ochiq qarshi olayotgani, aslida, farzandlarimiz uchun ibrat maktabi bo'lgan teledasturlarni dahshatli voqealar egallab olib, bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganidir. Asarning so'ngida yozuvchi yana yer yuziga shom qo'nganligi, har kungiday, boshqalaridan farq qilmaydigan oddiygina bir shom ekanligini ta'kidlaydi. Balki asar boshidagi singari yer yuzining qismati faqat qorong'ulik deyayotgandir. Balki bola qanchadan



qancha fojealarning, anglab bo'lmas kashfiyotlarning guvohi bo'lib, ta'sirlanib, ba'zida ajablansa-da, ammo oilada olgan mustahkam tarbiyasi tufayli ularni odiygina teledastur sifatida qabul qilganligiga ishoradir. Hozirgi kunda bu kabi dasturlarsiz, yangiliklarsiz hayotimizni tasavvur etib bo'lmaydi. Ammo har kim bunday ma'naviy tahdidlarni o'z qarashlari, oilada olgan tarbiyasiga qarab tahlil qiladi. Xuddi shu muammoning insoniyatga ta'siri xususida gap ketganda Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandhi quyidagi so'zlarni

keltiradi: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, uzimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman" – deb aytadi. Demak biz hech qanday ma'naviy tahdidlarga parvo qilmay, bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda, «dovullar»dan saqlashimiz zarurdir.

References:

- 1.O'zbek tilining izohli lug'ati. www.ziyouz.uz
2. Ibrohim G'ofurov. Parivashlar majlisi."Yangi asr avlodi" Toshkent.2013
- 3.Maslova A.N. Globallashuv jarayonlari sotsiologik nuqtai nazardan: ta'riflar va tushunchalar. Universitet kitobi. 2008
4. Muhammadjon Xolbekov. "Moziyga qaytaylik"n.ziyouz.com
5. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.T.: "Ma'naviyat", 2008-110-bet.
- 6.Isajon Sulton. " Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi"(hikoya).MuallifZiyo.uz
- 7.Bozor adabiyoti" yoxud badiiy so'z mas'uliyati. "O'zbekiston adabiyoti va san"ati" gazetasi. 2007.2-son.